



2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O'ZBEKISTON

№ 164 (1225), 2024-yil 16-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

15-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston va Rossiya Prezidentlari joriy yilning 26-28-may kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini muhokama qildilar.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish, ikki mamlakat yetakchi korxonalari va hududlari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, qo'shma investitsiya loyihalari va gumanitar dasturlarni amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan choralar ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Subhat chog'ida bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasi ham ko'rib chiqildi.

O'ZA

Nuqtayi nazar

MARKAZIY OSIYO: TARAQQIYOTNING YANGI OSTONASI

Bunda O'zbekiston tashabbuskor sifatida o'zini namoyon etmoqda

O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy barqarorlikka qaratilgan tashqi siyosati Markaziy Osiyo mintaqasi rivojida alohida o'rin tutmoqda, desak aslo mubolag'a emas. Binobarin, O'zbekistonning tashabbus va g'oyalari mintaqa mamlakatlari umumiy maqsad hamda birgalikdagi intilishlariga sabab bo'layotir. Va ayni shu jarayon ko'plab rivojlangan mamlakatlarni mintaqa bilan munosabatlarini mustahkamlashga undamoqda.



Markaziy Osiyo o'zining qulay geografik joylashuviga ko'ra, asrlar davomida jahon miqyosidagi geosiyosiy jarayonlar markazida bo'lib kelgan. Mintaqa boy madaniy-tarixiy merosi bilan Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'lovchi noyob chorraha vazifasini o'tagan. Bu borada Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvlarining mintaqa xalqlarini birlashtirishdagi rolini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur uchrashuvlar

ana shu tarixi ulug' va mushtarak mintaqada xavfsizlik hamda taraqqiyotning turli yo'nalishlarini birgalikda belgilab olish uchun samarali muloqot mexanizmiga aylandi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini muntazam ravishda o'tkazib turish tashabbusi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. Mazkur tashabbus mintaqadagi barcha davlatlar tomonidan faol qo'llab-quvvatlandi va o'sha yilning mart oyida Ostona shahrida ilk Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Oliy darajadagi uchrashuvda mintaqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalar hamda qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari keng muhokama qilindi.

Davomi 4-betda

O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI — AMALDA

BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDAGI MUSHTARAK MAQSADLAR

ekologik muammolarga qarshi kurashda samarali yechimdir

O'zbekiston ichki siyosatida keyingi yillarda kuzatilayotgan ochiqlik va yangilanishlar tashqi siyosatimizda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Yurtimiz xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida faol tashqi siyosat yuritib, xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar jahonning yetakchi siyosatchilari, dunyodagi nufuzli ilmiy markazlar olim va ekspertlari tomonidan munosib e'tirof etilayotgani O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos qadamlaridan dalolat beradi.



Mamlakatimizning butun dunyo xalqlarining yorug' kelajagi, tinchlik va taraqqiyotga yo'naltirilgan euzu tashabbuslari jahon miqyosida keng qo'llab-quvvatlanmoqda. BMT Bosh Assambleyasi

O'zbekiston tashabbusi bilan yana bir rezolyutsiyani qabul qilgani fikrimiz isbotidir. BMT Bosh Assambleyasi bir ovozdan ma'qullagan hujjat "Degradatsiyaga uchragan va qurg'oq hududlarda barqaror

o'rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ'ib qilish — ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi"ga oid rezolyutsiyadir.

Davomi 2-betda

TADBIRKOR — IJTIMOIIY HAYOTNING FAOL KISHISI

Munosabat

Bugun tadbirkorlik oddiy kun ko'rish vositasi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, odamlarning farovon hayot kechirishiga munosib hissa qo'shuvchi muhim subyektga aylanmoqda. Shu bois, mamlakatimizda soha vakillari erkin faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratilmoqda, imkoniyat berilib, rag'batlantirilmoqda.

Prezidentimizning 14-avgustdagi farmon va farmoyishiga binoan mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, sohada yangi va istiqbolli loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yurtimizning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini yuksaltirishga qo'shayotgan katta hisssasi, o'zining tashabbuskorligi, zamonaviy bilim va tajribasini namoyon etib, investitsiyalarni jalb qilish, import o'rini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishni yanada kengaytirish, aholi bandligi va farovonligini ta'minlash yo'lida alohida jonbozlik ko'rsatib kelayotgani, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun bir guruh yurtdoshlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari — orden va medallar, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Davomi 2-betda



Bugunning gapi

"HASAD QILISH — OMADSIZLAR ISHI" yoxud "sport nega kerak?" deguvchilarga javob

Fransiya sport arenalarida bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlari ko'p jihatlari bilan yodda qoladigan bo'ldi. Mazkur yirik sport musobaqasiga ko'rilgan tayyorgarlik, delegatsiyalar uchun yaratilgan sharoitlarning qoniqarsizligi, sportchilar shaxsiy buyumlarining o'g'irlanishi kabi holatlar xavfsizlik choralari yetarli darajada ko'rilmaganidan dalolat, albatta. Bu haqda ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'plab munosabatlar bildirildi.



Biz uchun e'tiborli jihati, mamlakatimiz sportchilarining munosib ishtirok etishi uchun davlatimiz tomonidan zarur sharoitlar yaratilgani bo'ldi. Bunda, hatto oziq-ovqat masalasi ham nazardan chetda qolmadi.

Shu yurtning farzandi sifatida sportchilarimizga ko'rsatilgan e'tibor

va mehrdan quvondik. Ming shukrki, chinakam jonkuyarlik bilan yaratilgan sharoitlar o'z samarasini berdi. Buni sportchilarimiz erishgan natijalarida ham ko'rish mumkin.

Davomi 5-betda

BIZNI YAGONA VA ULUG' G'OYA — VATAN, EL-YURT MANFAATI BIRLASHTIRADI

Inson uchun tug'ilib o'sgan yurti, ona vatanidan azizroq, ulug'roq makon yo'q. Vatan bu — bolaligimiz o'tgan chang ko'chalar, otabobalarimiz xoki yotgan muqaddas tuproq, ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros. U har birimizning qonimiz, yuragimiz, ongimizdan joy olgan. Uning har qarichi, gardi, zarrasi bebaho, undan qimmatliroq, ulug'roq boylik yo'q.

Ba'zi odamlar uchun qayerda yaxshi yashasa, daromad topsa, qozoni qaynasa, o'sha yer vatan bo'lishi mumkin, lekin o'zbek xalqi tug'ilib o'sgan go'shasidan, jamiyatdan ayro holda baxtli bo'la olmaydi. Buning siri bitta — vatanni, xalqini, oilasini sevish.

Dunyodagi eng ulkan qahramonlik nima? Bu vatan mustaqilligi va ozodligi, el-yurt tinchligi va osoyishtaligi, taraqqiyoti yo'lida ko'rsatilgan mardlik va jasoratdir. Bunday qahramonlik hech qachon unutilmaydi, hamisha xalq qalbidayashaydi, mangu qoladi.

Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi ulug' alloma va sarkardalarimiz, shoir va mutafakkirlarimiz o'z hayoti, faoliyati

misolida ona vatanga, xalqqa xizmat qilish qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatib bergan. Jaloliddin Manguberdining el-yurt tinchligi, istiqloli uchun chekkan zahmati, ayniqsa, Sind daryosi bo'yida o'z qo'shinidan to'rt marta ko'p bo'lgan Chingizxon qo'shiniga mardona qarshi chiqqani yoki Isfahon yaqinidagi jangda bor-yo'g'i 14 askari bilan mingdan ziyod mo'g'ul askari qurshovini yorib o'tgani ham insoniyat uchun ibratdir. U atigi 32 yil yashagan bo'lsa-da, o'zbek xalqiga xos vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak harbiy salohiyatni namoyon etdi.

Davomi 3-betda





O‘zbekiston tashabbuslari – amalda

BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LIDAGI MUSHTARAK MAQSADLAR

EKOLOGIK MUAMMOLARGA QARSHI KURASHDA SAMARALI YECHIMDIR

Boshlanishi 1-betda

Mazkur rezolyutsiya mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan, shahar va qishloq hududlarini ko‘kalamzorlashtirish orqali bioxilma-xillikni saqlash va tiklashga qaratilgan “Yashil makon” milliy dasturi konsepsiyasi asosida ishlab chiqildi. Hujjatda davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi va BMT iqlim bo‘yicha 28-konferensiyasida bildirgan asosiy takliflari o‘z ifodasini topgan.

Hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilayapti, sayyoramiz miqyosida iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib bormoqda. Iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari, ayniqsa, Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda jiddiy sezilmoqda. Mintaqamizda havo harorati oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki barobar ko‘p. Favqulodda issiq kunlar soni 2 karra ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo‘qoldi.

Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo‘ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi, qishloq xo‘jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda.

Mamlakatimizda bunday ekologik muammolarga qarshi kurashish, aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish maqsadida barcha sohalar qatori atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish borasida izchil islohotlar kechmoqda. Sohaning mukammal tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilishi barqaror rivojlanish kafolati bo‘layotir. Konstitutsiyamizda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lishi huquqi bo‘yicha norma kiritildi. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlashi hamda atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Keyingi yillarda sohaga oid qabul qilingan tegishli qonunlar ham ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlashdagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash imkonini berayotir. Natijada yurtimizda muqobil energiya ulushi ikki barobar ko‘paydi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish ustuvor vazifaga aylandi.

“Yashil makon” tashabbusi doirasida ko‘chat ekish ishlari umummilliy harakatga aylandi. Orol dengizining qurigan tubida qariyb 2 million gektar maydonda o‘rmonlar barpo etildi.

Yurtimizda o‘rmonlar ekotizimini barqarorlashtirish borasida ham jadal ish qilinayotir.

“O‘zbekistonda barqaror o‘rmon landshaftlarini tiklash” loyihasi bunga misol. Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi ushbu loyihaning umumiy qiymati 205 million dollardan ziyod bo‘lib, 6-yil davomida amalga oshiriladi. Bu mablag‘ o‘rmonlar hududini kengaytirish, o‘rmon xo‘jaliklari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, barqaror boshqaruvni joriy etish, ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish kabi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Xususan, o‘rmonlarni tiklash va muhofaza qilishda innovatsion boshqaruv hamda axborot texnologiyalar tizimi joriy qilinadi. Degradatsiyaga uchragan o‘rmon yerlari tiklanadi. Chegaradosh hududlardagi landshaftni tiklash bo‘yicha qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik rivojlantiriladi. Bularning natijasida 175 ming gektar o‘rmon va 38 ming gektar yaylovni qayta tiklash, 19 ming gektarda agro‘rmon va 5 ming gektarda sanoatbo‘p o‘rmon barpo etish, 63 kilometr ekoyo‘lak tashkil qilish ko‘zda tutilgan.



— Daraxt ekish, bog‘ yaratish xalqimizning ezgu odati, — deydi FA Botanika instituti direktori o‘rinbosari Farhod Karimov. — Ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ana shunday qadriyatlar tufayli biologik xilma-xillikni asrash, ekotizimlar barqarorligini saqlashga erishilmoqda. Ayni paytda bu hayotiy an‘analarni asrash barobarida o‘simliklarning xilma-xilligini o‘rganish va ularni saqlab qolishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa. Bu yo‘nalishda olimlarimiz tomonidan bir qator fundamental va amaliy loyihalar doirasida samarali tadqiqotlar qilinmoqda.

Shuningdek, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi bilan hamkorlikda xo‘jalik shartnomasi asosida ikkita loyiha amalga oshirildi. Ulardan biri “Qizil kitob”ga kiritilgan

bu yo‘nalishda hamjihatlikda bajarilgan ishlarning ekologik muvozanatni ta’minlashda o‘mi muhim.

Shu ma’noda, rezolyutsiyaga 100 dan ortiq a’zo davlat, jumladan, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari, Ozarbayjon, Avstriya, Belgiya, Bahrayn, Vengriya, Germaniya, Italiya, Iordaniya, Indoneziya, Qatar, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Latviya, Mo‘g‘uliston, Marokash, O‘mon, BAA, Pokiston, Portugaliya, Rossiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Fransiya va dunyoning turli mintaqalarini ifodalovchi boshqa yurtlar hammualliflik qilgani insoniyatning barqaror rivojlanishiga erishish yo‘lida maqsadlari mushtarak ekanini ifoda etadi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Biz va dunyo

RAYE KVON CHUNG: “O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING SA’Y-HARAKATLARI OROL DENGIZI EKOTIZIMINI TIKLASHDA SEZILARLI IJOBIY O‘ZGARISHLARGA OLIB KELADI”

Pan Gi Mun jamg‘armasi ijrochi direktori, BMT Bosh kotibining iqlim o‘zgarishi bo‘yicha sobiq maslahatchisi, Nobel mukofoti laureati Raye Kvon Chung “Dunyo” AAGA bergan intervyusida O‘zbekiston hamda jahon hamjamiyatining Orol dengizi ekotizimini tiklash borasidagi sa’y-harakatlari haqidagi fikrlari bilan o‘rtoqlashdi.



— Orol dengizining qurishi insoniyat tarixida biz guvohi bo‘lgan eng jiddiy ekologik fojialardan biridir, — dedi Raye Kvon Chung. — Shu yilning may oyida Nukusga so‘nggi tashrifim chog‘ida O‘zbekiston hukumati Orol dengizi qurishi natijasida jiddiy zarar ko‘rgan ekotizimni tiklash bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalarni qanday ro‘yobga chiqarayotganiga shaxsan guvoh bo‘ldim.

O‘zbekistonning Orol muammosini hal etish borasidagi sa’y-harakatlari juda hayratlanarli. Ishonchim komilki, bu tashabbuslar mintaqa ekotizimini sezilarli darajada o‘zgartirib, yashil hududlarni ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Orol dengizining qurigan tubida nafaqat yangi hayot yaratish, balki dengiz suvini qaytarishga ham harakat qilishimiz kerak. Orol dengizi qurishi oqibatida paydo bo‘lgan cho‘lning o‘rmonga aylantirish samarali qadam, ammo Orol dengiziga suvni qaytarish ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina suv sathi ko‘tarilib, baliqlar mintaqaga yana qaytadi va aholining yashash sharoiti yaxshilanadi.

Bu maqsadga erishish sug‘orish tizimini takomillashtirishni, paxta yetishtirishda suvni tejash uchun akvaponika, intensiv bog‘dorchilik kabi yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo qiladi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston hukumati sug‘orish tizimini yangilash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni, masalan, akvaponikani faol joriy etayotganini alohida ta’kidlamochim.

Ushbu texnologiyalar suv resurslarini tiklashning eng samarali usullaridan biridir. Ayni paytda O‘zbekistonda paxta yetishtirish bo‘yicha ekologik

jihatdan foydali loyiha amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha paxta yetishtirishda 90 foizgacha suvni tejash imkonini beruvchi “aqli” dala texnologiyalari va gidroponika usullaridan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, quyosh va shamol energiyasining qayta tiklanadigan manbalaridan paxta plantatsiyalarini “aqli” parvarishlash uchun foydalanish mumkin.

Dunyoda birinchi bo‘lib uglerodsiz, organik va suvni tejaydigan usullardan foydalanib paxta yetishtirish o‘zbek fermerlari uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bu esa ekologik toza paxtani Yevropa, xususan, Italiya va Ispaniya kabi mamlakatlardagi mashhur moda brendlariga sotish imkonini oshiradi. Natijada fermerlar daromadi ortadi va hududlar iqtisodiyoti jadal sur’atlarda o’sadi.

Ekologik toza paxta yetishtirish loyihasi nafaqat suvni tejashga yordam beradi, balki paxtachilikdan olinadigan daromadni ham oshiradi. Bunday loyiha suv resurslarini tejash va fermerlar daromadini ko‘paytirish, shuningdek, mamlakat ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga ko‘maklashadi, degan umiddamiz.

Hozir Toshkent davlat agrar universiteti bilan hamkorlikda g‘o‘zaning ekologik toza navlarini yetishtirish, “aqli” plantatsiyalarni yaxshilash bo‘yicha ilmiy izlanishlar qilyapman. Joriy yil sentabr oyidan keyingi yilning yoz oylarigacha mo‘ljallangan loyihamiz tijorat va sanoat maqsadlarida foydalanishga tayyorlanmoqda.

Ishonchim komilki, ekologik toza paxta loyihasi Orol dengizi tiklanishiga hissa qo‘shadi. O‘zbekiston Prezidentiga Orol dengizini tiklash va o‘rmonzorlarni ko‘paytirish borasidagi qat’iyati va sa’y-harakatlari uchun minnatdorlik bildirmochim.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakatlari Orol dengizi mintaqasi ekotizimini tiklashda sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritilishiga sabab bo‘ldi. Bugun biz nafaqat O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlashimiz, balki mintaqaviy va global hamkorlik yo‘lida olg‘a qadam tashlashimiz kerak.

Mintaqaviy va global qo‘llab-quvvatlash ijobiy natijalarga erishish uchun muhim omildir. Bunda O‘zbekiston hukumatining chora-tadbirlari ham juda muhim. Men mintaqaviy va global hamkorlik samarali natijalar olib kelishiga ishonaman.

Xulosa o‘rinda aytishim mumkinki, O‘zbekiston Prezidenti rahbarligida Orol dengizi fojiasini bartaraf etish bo‘yicha mintaqaviy va global sa’y-harakatlar muvaffaqiyatli davom ettiriladi.

“Dunyo” AA

Seul

Munosabat

TADBIRKOR — IJTIMOIIY HAYOTNING FAOL KISHISI

Boshlanishi 1-betda

PESHONA TERI BILAN TOPILGAN PUL BARAKA KELTIRADI

Abdum‘min KARIMOV,
“Shuhrat” medali sohibi:

— Joriy yil men uchun quvonchli voqealarga boy bo‘lmoqda. Avvalo, davlatimiz rahbari aprel oyida viloyatimizga tashrifi chog‘ida xonadonimizda mehmon bo‘ldi. Ushbu tashrif oilamiz uchun kutilmagan, katta shodiyonaga aylandi. Axir Prezident uyingizga mehmon bo‘lib kelishi juda hayajonli voqea! O‘shanda davlatimiz rahbari biz bilan samimiy suhbat qilish barobarida, tomorqamizni ko‘zdan kechirdi, ushbu sohani yanada rivojlantirish, kelajakdagi orzularimiz haqida so‘radi. Oilamiz misolida kimning o‘zida harakat bo‘lsa, yaxshi daromad topishi mumkinligi, aholi ixtiyorida tomorqalar, undan foydalanaman, degan insonlar ham ko‘pligi, faqat ularga yordam berish kerakligini ta’kidladi.

To‘g‘risi, oddiy xalq orasida yuradigan, yurtparvar Prezidentimiz borligidan faxrlandim. Tashrifdan so‘ng ko‘plab markaziy va mahalliy OAVda faoliyatim, oilamiz haqida maqolalar, ko‘rsatuvlar, eshittirishlar e’lon qilindi.

Bugun esa yana bir xushxabardan ko‘nglim tog‘dek ko‘tarildi. Prezidentimiz



farmoniga ko‘ra, “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim. Qarindoshlarim, tanishlar biri qo‘yib, biri tabriklamoqda. Ochig‘i, quvonchimdan yig‘ladim. Bu mukofot nafaqat menga, balki mamlakatimizdagi barcha tomorqachilarga ham kuch berishiga ishonaman.

Peshona teri evaziga topilgan pul baraka keltiradi, deganlari rost ekan. Halol mehnat orqasidan farzandlarimizni o‘qitdik, to‘ylar qildik, uy-joy qurdik. Eng muhimi, ro‘zg‘orimiz but, dasturxonimiz to‘kin, oilamiz tinch.

Xonadonim 20 sotixdan iborat bo‘lsa, shundan 12 sotixida tomorqachilik bilan shug‘ullanamiz. 7 sotixida issiqxona barpo etganman. Turli ro‘zg‘orbop ekinlar yetishtiramiz. Bir yilda to‘rt martagacha hosil olamiz. Xaridorlar uyimizdan olib ketadi. Bundan tashqari, chorva, tovuq, aslari boqamiz. Yiliga umumiy daromadlarimiz 200 million so‘mdan oshadi.

Mahallamiz ahli ilgari, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, hozirgi paytda ko‘proq tomorqachilikka e’tibor qaratyapti. Mahallamizdagi 620 ta xonadondan, qariyb 450 tasida yoqilg‘isiz isiydigan issiqxona mavjud. Ajratilayotgan imtiyozli kredit, subsidiyalardan foydalanayotgan odamlar tomorqasidagi mehnati natijasida uy quryapti, avtomobil sotib olyapti, to‘ylar qilyapti. Hududda ishsiz odamni uchratmaymiz. Shundan bo‘lsa kerak, mahallamiz jinoyatdan xoli hudud hisoblanadi.

Albatta, davlat mukofoti olish sharafl bo‘lgani bilan, o‘ziga yarasha mas’uliyati ham bor. Nasib qilsa, bundan keyin ham, yanada ko‘proq mehnat qilib, bor e’tiborimni tomorqachilikni yanada rivojlantirish, tajribamni ommalashtirish orqali, xalqimizni daromadli qilish, mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qarataman.

Gulnora USMONOVA,
Bag‘dod tumanidagi “Gulnora Matqulobod bodomlari” ishlab chiqarish kooperatsiyasi rahbari, “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni sohibi:

— Hamon esimda. Umumta’lim maktabini a’lo baholarga tamomlab, oliy ta’lim muassasalarida o‘qish uchun hujjat topishimdarman. Afsuski, yetarlicha ball ololmay, uyga kelib, rosa yig‘laganman. Turmushga uzatib yuborishlaridan, orzu-havaslarim sarobga aylanib ketishidan ko‘rqanman. Chunki aksariyat qishloq ayollari oila, farzand, dala yumushlaridan boshqa narsani bilmas va buni odatiy hayot tarziga aylantirib olgandi, o‘sha kezlarda.

Bugun bu an‘analarga barham berilgan, desam yangilashmayman. Sababi, keyingi yillarda tadbirkorlik, ishbilatmonlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar, imtiyoz va imkoniyatlar millionlab xotin-qizlar, oilalar hayot tarzini o‘zgartirdi. Ulardagi tashabbuskorlik, yaratuvchanlik, o‘zlariga bo‘lgan ishonch tuyg‘ularini jo‘sh urdirdi.

Qishlog‘imiz tuman markazidan olisda joylashgan. Ammo bu “Olma pish, ozg‘imga tush” degani emas. Dastlab, qo‘ni-qo‘shnilar bilan uy sharoitida qo‘l kuchi bilan bodomni qayta ishlashni boshlaganmiz. Mehnatimizga



yarasha daromad topib, ro‘zg‘orimizni tiklashga harakat qildik. Mahsulotimizga bo‘lgan talab ortib, biz bilan ishlash istagini bildirgan xotin-qizlar safi kengaydi. Imtiyozli kredit olib, qayta ishlash uskunalari, xomashyo xarid qildik.

Ishlab chiqarish kooperatsiyamizni tashkil etganimizga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Shu qisqa vaqtda nafaqat “Yuksalish”, balki yon-atrofdagi o‘nlab mahalla fuqarolarining mingdan ortiq xotin-qizlarini ishga jalb etdik. Ularga uy yumushlari, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda daromad topish imkoniyatini yaratdik.

Bizga mahalla fuqarolar yig‘inidagi bo‘sh turgan binolardan joy ajratib berildi. Natijada

ishlab chiqarish salmog‘i oshdi. Bugun 40 dan ortiq qayta ishlash dastgohlarimiz bor. Korxonamizga 36 nafar lider tadbirkor ayol birlashgan. Ular orqali 500 dan ortiq xotin-qizni kasanachilik asosida ish bilan ta’minladik. Bir oyda 80 tonnadon ko‘proq bodomni qayta ishlab, 60-65 tonna mahsulot tayyorlaymiz.

Joriy yilning 11–12-iyul kunlari qishloqdagi ishlab chiqarish korxonamizga Prezidentimizning kelishini kutmagan edik. Biz bilan o‘ta samimiy, otalarlarga qo‘lma-qo‘l bilan qilgan suhbat, qo‘llab-quvvatlashi dilimizga g‘urur-iftixor, daxldorlik tuyg‘ularini olib kirdi. Bugun kechagidanda yaxshiroq, samaraliroq ishlashga harakat qilyapmiz. Halol mehnat ortidan ro‘zg‘or tebrataypmiz. Farzandlarimizni o‘qitib, to‘y-tomoshalar qilyapmiz. Mahallamiz, uyimiz tinch, dasturxonimiz but.

Ana shunday quvonchli damlar shukuhi bilan oshunda bo‘lib turgan bir pallada “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganimni barcha mahalladosh ayollar mehnati, izlanishlarining mahsuli deb bildim.

Oddiy qishloq ayolining bu qadar e’tibor, e’zoz topganidan g‘ururlandim, albatta. Bu e’tirof yoshlikdagi orzu-maqsadlarim yo‘lida yangi marralar sari intilish, izlanishga undaydi. Buning uchun hamma sharoit, imkoniyatlar yetarli. Eng muhimi, yurt taraqqiyyoti, el farovonligiga hissa qo‘shayotganimdan mamnunam.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 16-avgust, 164-son

Bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!

BIZNI YAGONA VA ULUG‘ G‘OYA – VATAN,
EL-YURT MANFAATI BIRLASHTIRADISalohiddin ISOMIDDINOV,
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Vatan ozodligi, manfaati yo‘lida birlashib, kurashga bel bog‘lagan xalqni hech qanday kuch, hech qachon yenga olmaydi. Demak, ota-onalar katta umid bilan farzand o‘stirar ekan, avvalo, bolasini mustahkam irodali, qat‘iyatli, yurishi uchun fidoyi inson qilib tarbiyalashi lozim.

Shu bois, bu yil vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz uch yillik shonli sanasini chinakam umumxalq bayrami, ozodlik va saodat ayyomi sifatida ko‘tarinki kayfiyatda kutib olishga katta taraddud ko‘rilmog‘da. Prezidentimiz qaroriga muvofiq, joriy yilgi bayram tabdirlari “Bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!” degan bosh g‘oya asosida nishonlanmog‘da.

Bu bejiz emas. Ushbu g‘oya zaminida chuqur ma‘no bor. Binobarin, bugun yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan murakkab sharoitda har bir ota-ona amalda vatan himoyachisi bo‘lishi, yoshlarni ham shu ruhda kamol topirishi, millat kelajagini o‘ylaydigan, vatanparvar farzandlarni voyaga yetkazishi kerak. Demak, qat‘iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega, fidoyi yoshlarni tarbiyalash, ular ongiga vatanga sodiqlik va daxldorlik hissinii singdirish nafakat ota-onalar yoki ta‘lim muassasalari, balki hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi shart.

Vatan tuyg‘usi nima?

Har bir inson millati, tili va dinidan qat‘i nazar, hayoti, quvonch-u tashvishlarini vatandan ayro holda tasavvur etolmasligi ayon. Insonning yashab turgan manzili, tabiati, qarindosh-urug‘lari, yaqin birodarlari, hamma-hammasi — Vatan.

Bu mehr ong-shuurimizga onamizning maftunkor allasi-yu oq suti, ota nasihati, ustozlar ta‘limoti bilan kirib, qon-qonimiz, jon-jonimizga singib ulgurgan. Chunki har bir ota-ona farzandi dunyoga kelgach, “Bolam beliga belbog‘ yetmaydigan er yigit bo‘lsin, sher yigit bo‘lsin, alpqomat bo‘lsin, elning koriga yarasin, yurtning himoyachisi bo‘lsin”, deya niyat qiladi.

Farzandini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga alohida e‘tibor qaratadi. Bu bejiz emas. Boisi, inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida vatanga muhabbat tuyg‘usi chuqur ildiz otib, ulg‘aya boradi. U qancha teran bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtiga muhabbat ham shu qadar yuksak bo‘ladi.

Ona vatanini sevgan, ko‘z qorachig‘idek asragan, himoya qilgan yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirib bo‘lmaydi. Ular aldov va yolg‘onlarga uchmaydi, xalqning tinch-totuv umr kechirishi uchun, kerak bo‘lsa, jonini beradi. Bunday mad, jasur yigitlar oilasi, otanasini kabi yurtiga ham vafodori, eng muhimi, vatanparvar bo‘ladi.

Vatanparvarlik — buyuk tuyg‘u, u barcha munosabat va manfaatlardan ustun turadi. Davlat uchun eng qiyin bo‘lgan paytlarda mushkul ishlarni zimmasiga oladigan kishigina vatanparvar bo‘ladi. Ushbu tushuncha har bir mamlakat hayotining ma‘naviy asosi, jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu tuyg‘u yoshlarning o‘z oilasi, ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoni, burchi va o‘z so‘ziga sodiqligi hamdir. U bo‘lmagan joyda farovonlik yo‘li yopiladi, madorsiz hayajonning quvvati ham haminqadar bo‘ladi.

Vatan tuyg‘usi har bir inson jismiga, qalbiga ona suti bilan kiradi. Bu tuyg‘u avloddan avlodga, qondan qonga o‘tadi. Xalqimizda o‘g‘il uylantirayotganda yoki qiz uzatayotganda nasl-nasabga alohida e‘tibor berilishi boisi ham shunda. Zero, ota-ona g‘ururli bo‘lsa, farzand ham shunday kamol topadi, yurtiga, oilasiga sodiq bo‘ladi.

Ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, “Vatan tuyg‘usi eng insoniy, eng mo‘tabar tuyg‘ulardan biridir. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan onadek muqaddas. Uni qadrlash, e‘zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo‘lish, g‘am-tashvishini baham ko‘rish farzandning burchidir”. Ushbu so‘zlar o‘z davrida millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham shunchalik ahamiyatli.

Bugun sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlash uchun hamma yoppasiga chegarada qo‘riqchi bo‘lib turishi shart emas. Balki har bir inson o‘z zimmasidagi mas‘uliyatni ado etsa, vatan himoyasi, taraqqiyoti uchun katta hissa qo‘shgan bo‘ladi.

Ammo keyingi paytlarda yengil-yelpi hayot kechirishga moyil, bir-birini chuv tushirgan, e‘tiqodi sust, irodasiz yoshlar soni ortayotgani kishini o‘ylantiradi, mushohadaga chorlaydi. Ular mehnat qilish, kasb-hunar egallash o‘rniga tezroq boy bo‘lishni, eng so‘nggi rusumdagi mashina olishni, qarz-qavola qilib bo‘lsa-da, dabdabali to‘y o‘tkazishni o‘ylaydi. Shaxsiy fikri, hayotiy qarashlari, oldiga qo‘ygan aniq maqsadi yo‘qdek.

Bugun ayrim yoshlardan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Said Ahmadning “Ufq” romanlari, G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarlarini o‘qiganmisiz, deb so‘rasangiz ko‘pchiligi kitob o‘qishga vaqti yo‘qligini ro‘kach qiladi. Biroq ertadan kechga qadar vaqtini internetda, ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadi, aniqroq aytganda, shular ichida yashaydi. Achinarlisi, dunyoqarashi ham shu tarmoqlarda shakllanmog‘da.

Xo‘sh, unda nima qilmoq kerak? Nazarimda, bugun yoshlarning savodini chiqarish, ong-u tafakkurini yuksaltirish uchun xalqimizga kitob o‘qish madaniyatini qaytarish, tarixni o‘rgatish zarur. Chunki kitob ko‘ngildagi ehtiyojni qanoatlantiradi, ruhiyatni yangilaydi. Tarix esa inson irodasini mustahkamlaydi, hayotni tanitadi, oq bilan qorani ajrata bilishni o‘rgatadi.

Kitob yoshlarga ajdodlarimizni e‘zozlashni, tarixni xolis, ilmiy tushunish va tushuntirishni, Vatanni sevishini o‘rgatadi. Faqat shundagina etarniz egalarining qalbi ma‘rifatga, muhabbatga, ezigulikka to‘lib ulg‘ayadi. Irodasi baquvvat, mustaqil dunyoqarashga ega,



vatanga sodiq farzand bo‘lib kamol topadi. Aslida, bugungi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ham shu emasmi?!

Kasbga sadoqat

Hayot — oqar daryo, umr suv misoli shoshib o‘tib ketadi. U ham suv kabi loyqalanib, goh

Inson dunyoda nima uchun yashaydi, orzu-umidlari qachon ro‘yobga chiqadi? Qachonki oilasi, mahallasida tinchlik bo‘lsa. Ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etib, bunyodkorlik ishlari rivoj topsagina hayoti shirin, totli bo‘ladi.

tinib, goh to‘lqinlanib, goh sokin oqadi. Biroq qalb ezigulikka, sadoqatga to‘la bo‘lsa, umr hamma vaqt, har ishda bunyodkorlik bilan band bo‘ladi.

Sadoqatli kishi o‘z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo‘ymaydi, avval vatan, keyin o‘zim, deydi. Ongiga vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini singib ulg‘aygan yoshlar har qanday sharoitda ham yurt himoyasiga shay turadi, hech qachon o‘z yurtiga xiyonat qilmaydi.

Insonning yaqinlariga, do‘st-birodarlari, el-yurtiga sadoqati, eng sof va pokiza tuyg‘ulari, avvalo, oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma‘naviy mezon va qarashlarning poydevori ham oila sharoitida qaror topadi.

Ma‘rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganidek, “Har bir oilaning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millatlar ham shunda kuchli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”. Bu so‘zlar shunchaki so‘zlar emas, tagzamidrida katta ma‘no yashirin.

Chunki kishining vafodorligi vatan uchun qayg‘urishda namoyon bo‘ladi. El-yurtiga sodiq yigit turli aldovlar, hiylayu nayranglarga uchmaydi. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, ishonib topshirilgan vazifani oqlashga astoydil harakat qiladi.

Ko‘pchilik kasbining fidoyisi bo‘lmagan, faqat o‘zini o‘ylaydigan kishilardan yiroq yuradi. Aksincha, vijdoni uyg‘oq, mehr-oqibatli,

el-yurtning g‘am-u tashvishi bilan yashaydigan insonlarni boshiga ko‘taradi, hurmat-e‘tiborini joyiga qo‘yadi.

Oddiy hayotiy misol. Qishlog‘imizda qirq yildan buyon tibbiyot sohasida faoliyat yuritib kelayotgan, shu davr mobaynida biror marotaba kasbga xiyonat qilmagan, qishning qahratoniyu yozning jazirasida ham ummay yurib, el dardiga shifo bo‘lgan bir inson bor. U odamlarning sog‘lom yashashi uchun ba‘zan uyquzi, ba‘zan sog‘lig‘idan kechdi, ishiga doim sadoqatli bo‘ldi. Biror bemor yarim tunda chaqirsa ham vazifasini sidqidildan bajarganiga ko‘p marotaba guvoh bo‘lganman. Biz juda yosh bo‘lganimiz yoki kasbga sadoqat tuyg‘usini bilmaganimiz uchunmi, undan “Nega o‘z ishingizni bu darajada sevasiz, odamlar uchun jon kuydirasiz,



qayg‘urasiz, buning sababi nimada?” deb so‘rardik.

U esa “Biz xasta jonlar dardiga darmon bo‘lishga, xalq dardini o‘z dardimiz deb bilishga, kasbimizga sodiq bo‘lishga qasamyod qilganmiz. Axir umr o‘lchovli, bugun bormiz, ertaga yo‘q bo‘lishimiz mumkin”, derdi. Inson biror-bir kasbni egalladimi, unga sodiq bo‘lishi, boriga shukr, yo‘g‘iga sabr qilishi kerakligini qayta-qayta takrorlardi. Shu sababli qishloq ahli uning izzat-hurmatini joyiga qo‘yardi. Biror ish boshlasa, yoshu keksa doim yonida turardi.

Sadoqat so‘zini vatan, yurt, ota-ona, oila, do‘st, kasb kabilar bilan doim yonmayon ishlatishimiz bejiz emas. Chunki bugungi shiddatli davrda har bir davlatning mustahkamligi va aholisi o‘rtasida o‘zaro ishonch bardavom hukm surishi uchun sadoqat suv va havodek zarur.

U haqiqiy do‘stning sodiqligini sinashga yordam beradi, ayrim odamlarning mog‘or bosgan ongi va qalbini tozalaydi. Xalqimiz bildirgan ishonchni oqlash, nafs balosiga quloq tutmaslikka, xalq manfaatidan o‘z ehtiyojlarini ustun qo‘ymaslikka, “davring keldi, davron sur” qabilida ish tutmaslikka o‘rgatadi kishini.

Xo‘sh, bugun yoshlarimiz o‘z oilasi, aka-ukasi, ota-onasi, qarindosh urug‘lariga sadoqatli bo‘lib kamol topyaptimi? Kattaga hurmat, kichikka izzat, mehr-oqibat kabi fazilatlar qayerda qaror topadi?

Fikrimcha, yaxshilik va ezigulik, oiljanoblik, tug‘ilib o‘sgan yurtga sodiqlik, or-nomus va andisha kabi tushunchalarning poydevori, avvalo, oilada qaror topadi. Oila ma‘naviy qo‘rg‘on bo‘libgina qolmay, yosh avlodni vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashning ilk maskani hamdir.

Demak, har birimiz faoliyatimizda doim biz uchun qadriyatga aylangan sadoqatga sodiq qolishimiz lozim. Inchinun, vatan, ota-ona, oila, yaqinlarga, do‘stga, kasbga doim hamroh bo‘lishi kerak bo‘lgan sadoqat, agar qay birimizda bo‘lmasa yoki unga rioya qilmasak, oxiri yaxshi bo‘lmisligi mumkin.

Insoniyatga in‘om etilgan eng ezgu qadriyat ham aynan sadoqat. Agar biz ahillik, birlik, hamjihatlikni yo‘qotsak, vatan tinchligini ko‘z qorachig‘imizdek asramasak, bunday vaziyat kimlargadir qo‘l kelishi mumkin. Shuning

sha‘niga dog‘ tushirma”, derdi. El-yurtimizga tinchlik-xotirjamlik tilab duolar qilardi.

Nazarimda, keyingi paytlarda bu an‘analarni unutib qo‘yayotgandekmiz. Hozir ayrim ota-onalar bolalarining ertadan kechga qadar nima bilan band ekani, kim bilan yurgani, maktabda qanday ta‘lim olayotgani, qaysi fanga qiziqishini bilmaydi. Ota-onalikni faqat bolaning qorini to‘yg‘azish deb tushunadigan odamlar ham oramizda bor. Ular bugun farzandlariga ajratgan vaqti, mehri va e‘tibori ertaga oilasi va jamiyatga hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan insoniy resurs va kapital bo‘lib qaytishini bilmaydimi? Agar ahvol shu zaylda ketaversa, bolalar farzandlik mas‘uliyatini kimdan o‘rganadi?

Keyingi yillarda bu kabi savollarga javob bo‘luvchi yangilanishlar boshlandi. Yoshlarning o‘qib-o‘rganishi, iqtidorini namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratib berilmog‘da. Shu tariqa yangi O‘zbekistonga mutlaqo yangi hayot, yangi kayfiyat kirib keldi. Bugun vatanimiz nufuzli xalqaro tashkilotlarning to‘laqonli a‘zosi, dunyo tinchligida muhim o‘rin tutadigan, o‘z so‘zi, o‘rniga ega davlat. Yurtimizda erishilgan maralar haqida so‘z yuritdik, sanab adog‘iga yetolmaymiz.

Bu yangilanishlarni shahar markazida emas, balki eng chekka hududlarga borib ham ko‘rish mumkin. Men ham chekka qishloqda tug‘ilib o‘sganman. Poytaxtda turib u yerdagi o‘zgarishlarni yozayotganim yo‘q. Ochig‘i, hozir qishloqlarimiz shaharga tenglashib bormog‘da. Eng muhimi, bolalarimiz eng zamonaviy bog‘chalar, barcha qulayliklarga ega maktablarda ta‘lim-tarbiya olmog‘da. Sifatli tibbiy xizmat ham aholiga yaqinlashgan.

O‘zingiz aytib, yangilanayotgan O‘zbekiston, tiklangan qadrimiz, qaddimiz, davlat va xalq birligi, inson huquqlari ta‘minlanishi, so‘z erkinligi, tinch va osoyishta, farovon hayotimiz uchun faxrlanmay, g‘ururlanmay bo‘ladimi?! O‘z navbatida, har birimiz, xoh katta yo kichik, xoh rahbar yoki oddiy ishchi, kim bo‘lishimizdan qat‘i nazar, zimmamizdagi mas‘uliyatni his qilaylik.

Ming shukrki, bugun yurtimizda tinchlik, osoyishtalik hukmron. Har kuni tinch-xotirjam uyg‘onamiz. Oila bag‘rida nonushta qilib, ota-onamiz duosini olamiz. Odamlar o‘zaro ahil-inoq yashab, yaxshi kunlarini bahamjihat o‘tkazyapti, to‘y qilaypti, yangi uylar quraypti. Bularning bari — davlatimizdagi oqilona siyosat tufayli ta‘minlanayotgan tinchlik va osoyishtalik sharoifati.

Biz uchun ona kabi vatan ham yakka-yu yagonadir. Shunday ekan, yurtimiz tinchligi yo‘lida qayg‘urish, taraqqiyoti uchun xizmat qilish har birimizning burchimizdir. Fuzuliy aytganidek, “Mening bitta hayotim bor, bordiyu, mingta hayotga ega bo‘lgan taqdirimda ham hammasini vatan uchun sarflagan bo‘lur edim”. Bu so‘zlar zaminida oddiy, sodda, xalqona falsafa yotibdi. Agar biz ham vatanimiz taraqqiyoti va istiqboli uchun bir maqsad yo‘lida birlashsak, bu yo‘lda uyg‘oq va sergak bo‘lsak, shubhasiz, bizdan buyuk xalq ham, buyuk davlat ham bo‘lmaydi. Prezidentimiz aytganidek, “Biz bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!



O'zbekistonning mintaqada o'zaro ishonch va yaqin qo'shnichilik muhitini yaratish, manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari qo'shni davlatlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda. Maslahat uchrashuvlari qator mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surish va hamjihatlikda amalga oshirish imkonini bermoqda. Birgalikdagi sa'y-harakatlar esa mintaqaviy darajada iqtisodiy o'sishni va xalqlar farovonligini ta'minlaydi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Nuqtayi nazar



Jasurbek ATANIYAZOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Xalqlarimizning ko'p ming yillik qardoshlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari bog'lab turadi. Tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi. Mintaqamizda dunyo tamadduniga ulkan ta'sir ko'rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot mavjud bo'lib, bu mamlakatlarimizning umumiy kelajagi, barqaror rivojlanishi, farovonligini ta'minlashda mustahkam poydevor bo'la oladi.

Umummintaqaviy muammolarni hamkorlikda hal etish choralarini qidirishga bo'lgan ehtiyoj sharoitida muntazam faoliyat yuritadigan maydonning tashkil etilishi dolzarb masalalarni muhokama qilish va ular bo'yicha o'zaro maqbul yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbuslari qo'shni davlatlar rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida Markaziy Osiyoda siyosiy muloqot va o'zaro ishonch mustahkamlandi. Davlat rahbarlarining muntazamlik kasb etayotgan oliy darajadagi uchrashuvlarining soni ham, ahamiyati ham ortdi. Natijada mintaqadagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik darajasi yangi bosqichga ko'tarildi.

Qayd etish joizki, Markaziy Osiyo mamlakatlari savdo-iqtisodiy, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalarida ulkan salohiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, mintaqaviy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilarining joriy yil 9-avgust kuni Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tgan oltinchi Maslahat uchrashuvida keng muhokama qilindi. Yuqorida qayd etilganidek,

olti yil oldin aynan Ostona Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilarining birinchi Maslahat uchrashuvi o'tkazilgan edi. Shu davr ichida tarixiy uchrashuvlardagi ochiq va samarali muloqotlar, ilgari surilgan muhim tashabbuslar, ishga tushirilgan ko'p tomonlama loyihalar va dasturlar mintaqamizni tubdan o'zgartirishga xizmat qildi. O'zaro savdo, investitsiya, yuk tashish, fuqarolar tashriflari hajmi bir necha barobar ko'paydi.

Bu galgi uchrashuvning kun tartibidan savdo-sotiq, sanoat kooperatsiyasi, transport, logistika, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, energetika va madaniy-gumanitar sohalarida mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish bilan bog'liq qator masalalar o'rinda. Jumladan, energetika sohasida hamkorlik, yangi transport yo'laklarini yaratish va bu borada mavjud imkoniyatdan samarali foydalanish, eksport-import hajmini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi muhim masalalar ko'rib chiqildi.

O'zbekistonning hamkorlik aloqalarini rivojlantirish jarayonida tashabbuskorlik va pragmatizm tamoyillariga ustuvor e'tibor berayotganini alohida qayd etish lozim. Jumladan, oltinchi Maslahat uchrashuvida Prezidentimiz tomonidan mintaqamiz mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada faollashtirish, sanoat kooperatsiyasini o'zaro qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mintaqaviy transport-kommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, global iqlim o'zgarishi salbiy oqibatlariga qarshi kurashish, energetika sektoridagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha dolzarb tashabbuslar ilgari surildi. Yuksak qiziqish bilan qarshi olindi. Chunki ular mintaqamiz uchun o'ta zarur va muhim tashabbuslardir. Deylik, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi ichki mintaqaviy savdoni rivojlantirish taklifi iqtisodiy salohiyatini oshirish va integratsiya jarayonlarini mustahkamlashda muhim hisoblanadi. Mintaqada savdo jarayonlarida tarif va notarif to'siqslarni bartaraf etish, muvofiqlik sertifikatlarini o'zaro tan olish, reglamentlarni unifikatsiya qilish, bojxona amaliyotlari hamda



fitosanitariya tartib-taomillarini raqamlashtirish, davlat xaridlarida o'zaro ishtirok etishni ta'minlash ham zarur masalalardir. Ularga yechim topish istiqbolida integratsiyalashuvni kuchaytiradi. Barchaga daxldor yagona bozor vujudga kelishiga zamin yaratadi. Zotan, davlatimiz rahbarining aynan shunga e'tibor qaratib, "yagona mintaqaviy bozorni shakllantirish bizning uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan strategik maqsadimiz bo'lishi kerakligini" alohida ta'kidlab o'tgani bejiz emas. Yagona mintaqaviy bozor barcha uchun birdek manfaatli maydon bo'ladi.

Shuningdek, zaminimiz ulkan xomashyo zaxiralari, yangi innovatsion ishlanmalar, malakali ishchi kuchi va inson kapitali, texnologik imkoniyatlarga boy. Bugungi kunda umumiy aholi soni 82,3 million kishini, yalpi ichki mahsulot hajmi esa 470 milliard dollardan ortiqroqni tashkil etishi shundan dalolat beradi. 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi hajmi 7,2 milliard dollarni tashkil etgani, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 2,2 milliard dollarga ko'paygani esa yanada e'tiborni tortadi. Bundan tashqari, mintaqamiz

umumiy tashqi savdosida O'zbekistonning ulushi 11,5 foizga teng bo'lgan. O'tgan yilgi eksport hajmi 2,8 milliard dollarini, importi esa 4,4 milliard dollarga yetgan.

O'zbekistonning mintaqadagi umumiy tashqi savdo aylanmasida Qozog'istonning ulushi 61 foiz, Qirg'iziston 13 foiz, Turkmaniston 15 foiz va Tojikistonning ulushi 10 foizni tashkil etdi. Bulardan ko'rinadiki, o'zaro oldi-sotdi ko'rsatkichlari kichkina emas. Lekin shunga qaramasdan, bu borada hali ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud. Xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari ichki mintaqaviy savdo hajmini tayyor mahsulotlar hisobiga oshirish mumkin. Bunda chegara oldida maxsus hududlar tashkil etish, zamonaviy avtomobillar, maishiy elektrotexnikalar, farmatsevtika preparatlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi klasterlari, logistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish yaxshi samara beradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan aloqalarni strategik hamkorlik darajasiga olib chiqqani istiqbolida aloqalarni yanada rivojlantirish uchun barcha asoslar mavjudligini

ko'rsatadi. Xususan, geografik jihatdan o'zaro yaqinlik inobatga olinib, sanoat loyihalariga investitsiyalar kiritish, o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirishga ko'mak beruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishning samarali vositalarini yaratish rivojlanishga zamin yaratadi. Bu jarayonda mamlakatlardagi mavjud salohiyatni birlashtirgan holda qisqa va o'rta muddatli tashqi savdo aloqalarini yanada rivojlantirishga ko'mak beruvchi mexanizmlarni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi klasterlari, logistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish yaxshi samara beradi.

Mintaqa geografiyasining o'ziga xosligi tufayli hozir tashqi savdo yuklarini tashish xarajatlarini ulushi tovar yakuniy qiymatining 50 foiziga yetmoqda. Bu jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan 4-5 barobar yuqori. Shu bois, transport infratuzilmalarining o'zaro bog'liqligini mustahkamlash va yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish, xalqaro transport hamda tranzit yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish yuklarini tashish xarajatlarini pasaytirishda qo'l keladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlari temir yo'llarining uzunligi 22 ming kilometrga teng. Eng uzun va eng ko'p foydalaniladigan tizim Qozog'istonga tegishli. Ya'ni ushbu mamlakat hissasiga mintaqadagi temir yo'llarning 66 foizi va barcha yuk tashishlarning 84 foizi to'g'ri keladi. Mintaqadagi temir yo'llarning qariyb 18 foizi O'zbekiston hududidan o'tadi va barcha tashishlarning qariyb 11 foizi to'g'ri keladi. Turkmaniston taxminan 12 foiz mintaqaviy temir yo'llarga egalik qiladi va barcha tashishlarning 4 foizini ta'minlaydi. Shu jihatdan olganda, yangi transport va tranzit yo'laklarini shakllantirish, xalqaro logistika markazlari tarmog'ini yaratish, mintaqamiz transport-logistika salohiyatini rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlarning portlaridan samarali foydalanish, Markaziy Osiyoni Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan birlashtiruvchi yagona integratsiyalashgan tizimni yaratish masalalari mintaqamiz uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada o'zaro hamkorlikni rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro yuklarni tashishda tranzit va transport yo'laki sifatida salohiyatini yanada oshirib, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xorijga eksport qilish hamda yangi bozorlarga chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Qolaversa, chegaralarda bojxona va chegara tartiblarini soddalashtirish biznes xarajatlarini kamaytirish barobarida, mamlakatlararo savdo va tranzit tashish hajmini oshirishga xizmat qiladi. Transport infratuzilmasining takomillashuvi esa xorijdan investitsiyalarni keng ko'lamda jalb etishga qulay sharoit yaratadi.

Qisqa qilib aytganda, O'zbekistonning mintaqada o'zaro ishonch va yaqin qo'shnichilik muhitini yaratish, manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlari qo'shni davlatlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda. Maslahat uchrashuvlari qator mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surish va hamjihatlikda amalga oshirish imkonini bermoqda. Birgalikdagi sa'y-harakatlar esa mintaqaviy darajada iqtisodiy o'sishni va xalqlar farovonligini ta'minlaydi.

Transport tizimi

HARAKAT SIFATGA QARATILGAN

Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda kuniga 10 milliondan ortiq yo'lovchi jamoat transporti xizmatidan foydalanadi.

Transport-kommunikatsiya sohasidagi o'zgarishlar yo'lovchilarni xavfsiz va qulay sharoitlarda manziliga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-maydagi "2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida vohada ushbu yo'nalishdagi ishlar ko'lamini ancha kengaygan.



— 2000-yillarning boshlarida Termiz shahrida bittagina avtobus yo'nalishi mavjud edi, — deydi mehnat faxriysi Shokir Xo'jayev. — Uzoq yillik avtobus haydovchisi sifatida qiziqqanim, bugun Termiz shahrining o'zida o'ndan ortiq yo'nalishda avtobuslar harakatlanadi.

Joriy yilda viloyat markazida jamoat transporti xizmati sifatini yanada yaxshilash maqsadida "Toshshahartransxizmat" AJdan 100 ta avtobus xarid qilinib, yo'nalishlarga qo'yildi.

— Hozir Termiz shahrida 185 ga yaqin avtobus aholiga xizmat ko'rsatib kelmokda. Sotib olingan 100 ta avtobus shahar yo'nalishlariga birlashtirilib, oraliq intervalllar qisqarishiga erishildi, — deydi "Termiztrans" AJ vakili Botirali To'raqulov. — Bir vaqtlar poytaxtdagi kabi jamoat transporti infratuzilmasini hissa qilardik. Bugun eng chekka hududlarda ham jamoat transporti xizmati sifati ko'tarilib bormoqda. Tumanlararo yo'nalishlarni yo'lga qo'yidik. Avtosaroy ishga tushdi. Avtobuslarning interval vaqti 7-8 daqiqaga tushirildi. Bir kunda 68 mingdan ortiq yo'lovchiga xizmat ko'rsatilmoqda.

Termiz xalqaro aeroportida ham yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati oshib bormoqda. Aeroportning uchib-qo'nish yo'lagi, harakatlanish yo'laklari va to'xtab turish joylari qayta qurildi.

ko'payishiga sabab bo'ldi, — deydi Termiz xalqaro aeroporti direktori Shuhrat Kabilov. — O'tgan yilning ikkinchi yarim yilligida aviayo'lovchilar soni ikki barobar oshdi. Oldinlari kuniga bitta yoki ikkita reys uchgan bo'lsa, hozir haftasiga 24 ta reys yo'lga qo'yildi.

Termiz xalqaro aeroportida shu kunlarda yana bir qulaylik yaratildi. "O'zaeronavigatsiya" markazi Termiz hududiy bo'linmasida havodagi harakatni boshqarish minorasining yangi binosi foydalanishga topshirildi. U zamonaviy radiolokatsiya va radionavigatsiya uchun ilg'or vositalar bilan jihozlangan bo'lib, soatiga 12 ta, bir kecha-kunduzda 264 ta, yil davomida 3168 ta havo kemasiga xizmat ko'rsatishga qodir. Bu esa xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, tranzit salohiyati keskin oshishiga sabab bo'ladi.

Surxon vohasida temir yo'l sohasidagi o'zgarishlar ham quvonarli. Keyingi yillarda viloyatdagi barcha temir yo'l vokzallari bosqichma-bosqich zamonaviy qiyofa kasb etdi. O'tgan yillar davomida Denov hamda Uzun temir yo'l vokzallari yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi.

— Avvallari poytaxtga faqat viloyat markazidan birgina yo'nalish bo'lardi. Hozir Sariyosiy — Toshkent yo'nalishida har kuni poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Termiz — Andijon yo'nalishida yo'lovchi tashilyapti. Shaharlararo, jumladan, Termiz — Dardand poyezdi qatnayapti, — deydi "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ Surxondaryo viloyati filiali muhandisi Furqat Haydarov. — Nafaqat yangi yo'nalishlar yo'lga qo'yilib, yo'lovchi tashish imkoniyati ortgan, balki infratuzilma ham tubdan yaxshilangan.

Transport xizmati sohasidagi bu kabi islohotlar aholi va yurtimiz mehmonlarining uzoqini yaqin va og'irini yengil qilishda hamda turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Obod manzillar



TAXTAKO'PIRDA REJALAR YANGILANIB TURADI

Nukus shahridan 100 kilometrdan ortiq masofada joylashgan Taxtako'pir tumani obod manzillardan biriga aylanmoqda. Tuman markaziga kirishdagi yashil qoplamali zamonaviy stadionda bolalar futbol o'ynayapti, bir tomonda katta xo'shona qad rostlamokda. Yo'llar tekis va ravon. Buzodkorlik ishlari avjida. Bular o'tgan yilgi davlat dasturi doirasida tuman hududida 32 trillion 754 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari samarasi. Joriy yilda esa 11 trillion 305 milliard so'mlik 3 ta obyektida qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladi. Xususan, shu kunlarda Do'stlik guzari ko'chasi 10 kilometriga temir-beton ariq o'rnatilmoqda. Qurilish ishlari yakuniga yetkazilgach, hududlardagi 3 mingdan ortiq xonadonning 451 gektar tomorqasi hamda tuman markazidagi 24,6 gektar ko'kalamzorlashtiriladigan yer suv bilan ta'minlanadi.

Shuningdek, "Taxtako'pir" posyolka fuqarolar yig'ini hududida 5,321 milliard so'mlik Yoshlar markazining yangi imoratini qurish ishlari rejalashtirilganki, bu ham navqiron avlodga sharoit yaratish barobarida tuman qiyofasiga ko'rak bag'ishlaydi.

Tumandagi obodlik va odamlar turmush sharoiti yaxshilanishida tadbirkorlik subyektlari ham hissasini qo'shmoqda. Xususan, 2020-yildan buyon faoliyat ko'r-satayotgan "Good Salt Production" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 25 kishi mehnat qiladi. Ular tomonidan yiliga 10 ming tonna osh tuzi qayta ishlanib, mahalliy bozordan tashqari Germaniyaga eksport qilinmoqda.

Oydin yo'l mahallasidagi "From mebel" xususiy korxonasi esa tumandagi kichik sanoat zonasini hududida bo'sh turgan binoda investitsiya kiritish bilan tashkil etilgan. Korxonada 8 fuqaroning

bandligi ta'minlangan bo'lib, yiliga 720 million so'mlik mebel va temir buyumlarni ishlab chiqariladi.

— O'tgan yili bankdan 350 million so'm imtiyozli kredit olib, zarur uskunalar xarid qildik, — deydi tadbirkor Murodboy Ayimbetov. — Hozir buyurtma asosida oshxona mebellari, kitob javonlari singari arzon va sifatli jihozlar ishlab chiqaryapmiz. Kelajakda yumshoq mebellar tayyorlashni ham reja qilganmiz.

Joriy yil tumanda jami 11 milliard so'mlik 7 ta investitsiya loyihasi ro'yobga chiqarilib, 49 ta yangi ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan. Eksport mo'ljali 5 million dollar. Hozirgacha 1 million dollarlik eksport amaliyoti bajarildi. Bu esa hudud iqtisodiyoti rivojiga xizmat qiladi, tadbirkorlarni yangi tashabbuslarga undaydi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 16-avgust,

164-son

Bugunning gapi



PARIS 2024



“HASAD QILISH — OMADSIZLAR ISHI”

yoxud “sport nega kerak?” deguvchilarga javob



Abdumutallib O'KTAMOV, jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimiz delegatsiyasining shu paytgacha eng yaxshi natijasi “Rio—2016”da bo'lib, unda 4 oltin, 2 kumush, 7 bronza medal qo'lga kiritilgan. “Parij — 2024”da tarixiy natija qayd etilib, O'zbekiston 206 ta mamlakat orasida 13 medal bilan 13-o'rinni egalladi.

Parijda 8 oltin, 2 kumush, 3 bronza medalni qo'lga kiritgan O'zbekiston MDH, Markaziy Osiyo, turkiy va musulmon davlatlari orasida eng yaxshi natijani qayd etdi. Bu tarixiy natija davlatimiz mustaqilligining 33 yiligi arafasida qo'lga kiritilgani yanada quvonchli.

Birinchidan, shuni aytish zarurki, yuksak yutuqlarga erishgan sportchilarni, chempionlarni mukofotlash orqali yosh avlodning sportga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishi keskin ortadi. Mamlakatda sog'lom turmush tarziga rioya qiluvchilar safi kengayadi. Buning qiymatini milliardlab dollar bilan ham o'lchab bo'lmaydi.

Fransiyalik ziyoli va Xalqaro olimpiya qo'mitasi (XOQ) asoschisi Pyer de Kuberten uyushgan sport ma'naviy va ijtimoiy kuch yaratadi, deb hisoblab, irqi, millati va daromadidan qat'i nazar, butun dunyo bo'ylab yoshlarning ta'lim va sport bilan shug'ullanish imkoniyatini kengaytirishni targ'ib etgan.

Bugungi kunda ham Pyer de Kuberten g'oyalari o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi sportning tinchlik va taraqqiyotga qo'shayotgan hissasini e'tirof etib, **sport bag'rikenglik va hurmatni rag'batlantirishini** e'lon qildi.

2016-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida sportdan o'quv quroli sifatida foydalanish, butun Braziliya maktablarida taklif qilinadigan sport turlarini ko'paytirishga qaratilgan “Transforma” ta'lim dasturi ishga tushirildi. Tadqiqotlar 28 mingdan ortiq Braziliya maktablari ushbu dasturda ishtirok etayotgani va mamlakatda sport bilan shug'ullanish miqdori va sifati organini ko'rsatgan.

Ikkinchidan, sportchilarga ko'rsatilayotgan e'tibor yoshlar o'rtasida o'ziga ishonch ruhini oshirishga, ularni barkamol inson sifatida hayotga tayyorlashga xizmat qiladi. Yoshlar chempionlarga havas qilib, ulardek bo'lishga intiladi. Yigit-qizlarda chempionlar yetishib chiqadi. Bunday maqsad, sog'lom turmush ishtiyoqi uchun har qancha rag'bat ko'rsatilsa arziydi.

Havas deganimizga, shu kunlarda qiz farzandli bo'lgan ko'plab yurtdoshlarimiz

qizaloqlariga Diyora, deb ism berayotgan ekan. Bu Olimpiada chempionimiz Diyora Keldiyorova misolida sportchilarimizga ko'rsatilayotgan e'tibor mahsulidir.

Ma'lumotlarga ko'ra, Diyora Keldiyorova 28-iyul kuni Toshkent vaqti bilan soat 21:46 da g'alaba qozongan. 29-iyul — 12-avgust oralig'ida mamlakatimizda 20 ming 861 nafar qiz chaqaloq dunyoga kelgan bo'lsa, ularning **466 nafariga Diyora ismi qo'yilgan**.

Uchinchidan, XOQ ma'lumotiga qaraganda, “Tokio — 2020” o'yinlarini butun dunyo bo'ylab 3 milliard kishi, Yaponiyada esa mamlakat aholisining 91 foizi (taxminan 116 million kishi) tomosha qilgan. Avstraliyada bu ko'rsatkich 20 millionni tashkil etadi. Bu yashil qit'a televideniyesi tarixidagi rekord ko'rsatkichdir.

Yana bir gap. XOQning ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari taxminan 110 million obunachiga ega va oylik o'zaro aloqalar soni 640 millionni tashkil etadi, bu 2020-yilga nisbatan 966 foiz ko'p.

Parijdagi Olimpiadaning rasmiy ijtimoiy media kanallari o'yinlarning birinchi haftasida 8,5 milliarddan ortiq tomoshabinni yig'di. Bu “Tokio — 2020”dagidan 40 foiz ko'pdir.

Eng muhim voqea, har bir OAV va ijtimoiy tarmoqda Olimpiya o'yinlarining namoyish etilishi va vatanimiz sportchilarining zafarli yurishlari, yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilib, chempionlarimiz sharafiga madhiyamiz yangrashi butun dunyo e'tiborini O'zbekistonga qaratdi.

O'z navbatida, bu mamlakatimizni kashf etishga bo'lgan qiziqishning ortishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqib sportchilar vatandoshlari va davlatlari e'tiborini qozonamiz. Munosib e'tiborga javoban qo'lga kiritilayotgan yuksak natijalar kelgusida xalqaro tadbirlar va sport musobaqalarida mamlakatimizga alohida diqqat qaratilishi va vakillarimiz bilan o'yab muomala qilinishiga zamin yaratadi.

To'rtinchidan, kurrai zamin e'tibori qilgacha, shu yurtini bir bor ziyorat qilishga qiziqish ortadi. Turizm rivojiga hissa bo'ladi.

Dunyoga mashhur telekanallarda bir soniyalik lavhaning narxi qanchalar qimmat turishini ko'pchilik yaxshi biladi. Chempionlarimiz esa O'zbekiston nomini takror va takror yangrashini tekinga uddalashdi. Masalan, **Diyoraning g'alabasiga oid rolklik 10 million martadan oshiq** ko'rilgan. Har bir lavha mamlakatimiz nomini yanada mashhur qiladi.

Shu ma'noda, turizmga foyda keltirishi haqidagi gap shunchaki oldi-qochdi emas. Masalan, ayrim vatandoshlarimizning Yevropa mamlakatlariga sayohat qilgan chog'i dunyoga mashhur futbol klublari maydonlarini ko'rishga oshiqishi, u yerdan olingan foto va videolavhani o'zlarining ijtimoiy tarmoq sahifalarida katta zavq bilan e'lon qilishini ko'p kuzatganmiz. Hatto ularga havasimiz ham kelgan.

Shunday ekan, O'zbekistonda sport turlarining rivojlanishi turizm salohiyatimiz

oshishiga ham foyda beradi. Bunga ishonchim komil. Dunyoning turli o'lkalaridan o'zbek sport maktablarini ko'rishga, chempionlarimiz maktablariga tashrif buyurib, ular bilan rasmlar tushish istagida bo'lgan ko'plab sport ixlosmandlari kela boshlaydi. Ya'ni mamlakatimizda sport turizmi rivoj topadi.

Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda chempionlarga berilgan mukofot puliga



maktab qursa bo'lardi, degan fikrlarga to'xtalsak. To'g'ri, juda asosli gap. Lekin maktab faqat moddiy tushunchami?

Esingizda bo'lsa, O'zbekiston delegatsiyasi 1996-yilda Atlantada o'tkazilgan Olimpiadada o'z ishtirokini boshlagan, o'shanda 1 kumush va 1 bronza medal bilan kifoyalanagan.

2000-yilda Sidneyda bo'lib o'tgan Olimpiadada bokschi Muhammadqodir Abdullayev O'zbekistonga tarixiy ilk oltin

medalni taqdim etgan. Bu ulkan muvaffaqiyat mamlakatimizda yoshlar o'rtasida boksga qiziqishning keskin ortishiga, sport bilan shug'ullanuvchilar safi kengayishiga turki berdi. Muhammadqodir chinakam o'zbek qahramoniga, yoshlarimizning idealiga aylandi. Har bir bolaning qalbidagi unga o'xshagan yigit bo'lib ulg'ayish orzusi paydo bo'ldi.

Yoki Nigina Abduraimova, Iroda To'laganova, Sabina Sharipova va Oqgul Omonmurodova kabi tennischi qizlarimiz sabab yurtimizda tennis bilan shug'ullanish omma-lashgani ham kechagidek yodimizda.

Rustam Qosimjonov muvaffaqiyati qanchadan-qancha shaxmatchi chempionlarimiz yetishib chiqishiga turki bo'lganini ko'rib turibmiz.

Ikki karra Olimpiada chempionimiz Bahodir Jalolov va boshqa bokschilarimiz o'z maktablari faoliyatini yo'lga qo'ygani esa kelajakda Muhammadqodir, Bahodir va Hasanboydek ko'plab bokschilar, Diyora-dek kurashchi qizlarimiz yetishib chiqishiga, yosh avlodning mard, jasur va oriyatli bo'lib ulg'ayishiga xizmat qiladi.

Oltinchidan, yurtimizda fan va ta'limga ham katta e'tibor berilayotganini ta'kidlash o'rinni. O'zbekiston Fanlar akademiyasining barcha institutlari to'liq tiklanib, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Moddiy-texnik bazasi takomillashirildi. To'xtab qolgan akademiklik saylovlari tiklandi.

Shuningdek, mamlakatimizda fan olimpiadalari sovrindorlarini oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda imtiyozlar yaratilgan. Xalqaro fan olimpiadalari sovrindori bo'lgan yoshlarimiz moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanmoqda.

Shu o'rinda bir narsaga e'tibor qaratishimiz joiz bo'ladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, birgina futbol bo'yicha top chempionatlarda futbolchilar qanchalik

katta maosh oladi? Yoki professional boks bo'yicha bo'lib o'tadigan yirik janglarga qancha gonorar tikiladi? Bularning bari sportchining o'z sog'lig'i va hayotini garovga qo'yib maydonga tushishi bois. Xatarning jiddiy va kattaligi, o'z navbatida, kurashga tikiladigan haqning ham salmog'iga ta'sir ko'rsatadi.

Eng yorqin futbolchilar faoliyati ham sanoqli yillarni tashkil etishini inobatga olsak, sportchining faoliyat bozoridagi barqarorlik vaqti uzoq emasligini anglash oson.

Har bir jangga kirishayotgan sportchi katta bosim ostida bo'ladi. Mag'lubiyatlar qattiq ruhiy charchoqni yuzasiga keltiradi, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Ham ruhan, ham jismonan bardam sportchigina mag'lubiyat va qiyinchiliklarni yengib o'ta oladi.

Murabbiylik esa undan-da mashaqqatli. Buni Parij Olimpiadasida boks bo'yicha jamoamiz murabbiyi To'liqin Qilichev bilan yuz bergan holat misolida ham ko'rdik.

Va nihoyat, sport — tinchlik elchisi. Parij Olimpiadasi ham qo'lga kiritilgan medallardan tashqari, bahosi hech bir moddiy boylik bilan o'lchanmaydigan yaxshiliklarni taqdim etdi. Ezgulik, do'stlik tuyg'ulari keng yoyilishiga xizmat qildi.

Ayniqsa, o'zbekistonlik murabbiyning qirg'iz bokschiga sekundantlik qilgani, o'zbek, qozoq va qirg'iz sportchilarining o'zaro yaqin munosabatlardan lavhalar va bu voqealarga bildirilgan fikrlar xalqlarimiz o'rtasidagi o'zaro do'stlik rishtalarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qildi. Qirg'izistonlik siyosiy tahlilchi Sulton Kanazarovning “O'zbekiston g'alabali butun mintaqanikidir” nomli munosabati keng jamoatchilik e'tiborini tortib, ijtimoiy tarmoqlar **ahilligimiz abadiy bo'lsin**, degan istaklarga to'ldi.

Musobaqa yakuniga qadar o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, xususan, turkiy xalqlar — barcha bir-birini qo'llab-quvvatladi. Markaziy Osiyo xalqlarini yanada birlashtirgan, birdamligini mustahkamlagan **Parij Olimpiadasi chinakam do'stlik**

elchisi vazifasini bajardi. Bu ulug' ne'mat, bu natija har qanday yutuqdan ham qimmatli va azizdir. Biz o'zaro do'stlikni, qalban yaqinlikni his etdik. Bunga moddiy boylik orqali erishib bo'larmidi?

Xalqaro olimpiadalar tarixiga nazar tashlasak, mamlakatimiz sportchilari erishgan natijalar bilan, hattoki, kuchli yigirmatalikka ham kirmagan ekanmiz. Ularda ishtirok etish bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkich 1996-yili 71 sportchini tashkil etgan. Bu yilgi Olimpiadada mamlakatimiz sharafiga 86 sportchimiz himoya qildi. Bu esa, Olimpiadaga yo'llanma beruvchi xalqaro musobaqalarda raqobatbardoshligimiz ortib, salohiyatli sportchilarimiz safi kengayib borayotganidan dalolat.

Davlatimiz rahbarining oltin medalni qo'lga kiritgan har bir sportchimiz bilan telefon orqali bog'lanib, tabriklab borishi barcha yurtdoshlarimizga g'urur bag'ishlashi barobarida sportchilarimiz uchun ulkan madad va ishtiyoq baxsh etdi. Bor mehr va ishonchi bilan muxlislik qilayotgan xalqi, Prezidentini xursand qilish, ko'rsatilgan g'amxo'rlik va bildirilgan ishonchni oqlash uchun yanada faol bo'lishga ilhomlantirdi.

O'zimizga bir savol beraylik, ne-nomdor davlatlar sportchilari bir dona bo'lsa ham oltin medal olish ishqida yondi, lekin nasib etmadi. Ular ana shu birgina oltin medal uchun biz sakkiz chempionimizga to'langan pulni berishga tayyor edi.

Aslida, Olimpiada shunchaki bir musobaqa emas, u mamlakatlar uchun har to'rt yilda bir o'tkaziladigan imtihondir. Bu uchun har bir davlat yillar davomida tayyorgarlik ko'radi, sport uchun moddiy resurs tikadi. Qilingan mehnat va harakatlar natijasi ko'ngildagidek bo'lishi uchun hosilni yig'ish pallasi, ya'ni musobaqa jarayonida o'z ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashga urinadi. Ming shukrki, yurtimizda so'ngi yillarda sportga ko'rsatilayotgan e'tibor Parij Olimpiadasida o'z samarasini berdi.

Chempionlarimiz sabab sportga bo'lgan ishtiyoqning o'tirishi kelasi musobaqalarda O'zbekiston nomi yanada ko'proq dovruc yoyishiga xizmat qilajak.

Bugun yuksak natijalari bilan O'zbekiston bayrog'i baland ko'tarilishi va mamlakatimiz madhiyasi yangrashiga sabab bo'lgan chempionlarimizga, shu sport musobaqasida vatanimiz sharafiga himoya qilish uchun astoydil kurashgan barcha sportchilarimizga minnatdorlik bildirsak arziydi.

Xullas, dunyoning eng nomdor jamoalari orasida munosib natijalarni qayd etgan sportchilarimiz sizni bizing yaqinlarimiz, O'zbekiston, degan yagona, ahil oilaning a'zolari. Bizga bir-birimizning yutuqlarimizdan quvonish va qutlash, qayg'u va mushkullarda yelkadosh bo'lish yarashadi. Chempionlarimiz sabab bugun yurtimizda bayram bor ekan, uni ahillik va yuqori kayfiyatda o'tkazamiz.

Donolar aytadiki, hasad qilish — odatda omadsizlar ishi. Ichki muhimi buzishga, inoqlik o'rni nifoq solishga qaratilgan, g'ayir va hasadga yetaklaydigan g'oyalarga aldanmang. Hamisha havas bilan, aniq va ulkan maqsadlar bilan, yaxshi kunlarda bir-birimizni qutlab yurish baxtidan bahra olib yashaylik. Tinchligimizga, ahilligimizga ko'z tegmasin. G'alabalarimiz bardavom bo'lsin.





MULOHAZA



Charxlanib borayotgan tafakkur

Jamiyat tafakkuridagi inqilobiy o'zgarishlarga o'zini daxldor bilgan har bir yurtdoshimiz davlatimiz rahbari o'tkazgan ikkita tarixiy yig'ilish va imzolagan qaror mazmun-mohiyati bilan qayta-qayta tanishishi kerak. Bu davlat siyosati, maqsadi va qay manzil tomon odimlayotganini his qilish hamda buni tevarakdagilarga ham anglatib borish uchun zarur.

Birinchisi, 2021-yil 19-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videosektor yig'ilishi. O'shanda **"Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"** degan purma'no fikr ilgari surilgan edi.

Ikkinchisi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda kengaytirilgan majlisi. Unda ko'rilgan masalalar yechimi hamda davlatimiz rahbarining **"Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak"** nomli nutqi ma'naviy hayotimizning konseptual asoslarini belgilab berdi.

Uchinchisi, davlatimiz rahbarining 2021-yil 26-martda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror. Unda mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarayotgani ugr'ulanib, bu yo'nalishda istiqbolidagi keng qamrovli vazifalar belgilab berildi.

To'g'ri, ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, ilmfan taraqqiyoti va boshqa shu kabi yo'nalishlarni takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi. Qolaversa, bir nechta yuqori darajadagi yig'ilishlar shu mavzuga bag'ishlandi. Ammo mazkur ikki mashvarat, qaror va nutq mazmun-mohiyati yo'nalishning asosiy "yo'l xaritasi"ni belgilab berdi.

Shaxsan o'zim ulardagi maqsad, muddaoni bunday angladim. Nazarimda, "Hoy, baraka topgurlar, ma'naviyatimiz peshvolari, ziyolilar, olimu pedagoglar, shoiru yozuvchilar! Bo'ldi, bas, g'afiat yetar, loqaydlik yetar, endi uyg'oning, atrofga hushyor boqing. Uzoq yillar beparvolik, befarqlik qilib, ma'naviyatimizni ancha cho'ktirib qo'ydik. Uni ko'taraylik, yurtimizning dunyo tamadduniga beshik bo'la olgan avvalgi yuksak mavqeiini tiklaylik. Buning uchun barcha sharoitni yaratamiz, qancha kerak bo'lsa, mablag' ham topamiz. Bugun ma'naviyatdan iqtisod qilingan 1 so'm ertaga milliardlab zarar keltiradi", degan da'vat yangragandek bo'ldi.

Shu kabi hayotbaxsh da'vatlar mazmun-mohiyatini to'g'ri anglagan bo'lsak, bu tafakkurimiz charxlanib borayotganidan darak.



Ma'naviyatdan IQTISOD QILINGAN 1 SO'M

KELAJAKDA MILLIARDLAB SO'M ZARAR KELTIRADI



Nodir MAHMUDOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yangi hayot qurishdagi tayanch nuqta

Har bir xalq, avvalo, ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksaladi. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish yo'lidani borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim. Yuksak ma'naviyat zahirida nima turadi? Avvalo, tarbiya va ta'lim! Insonni nafaqat oila, balki jamiyat ham tarbiyalaydi. Ta'limni nafaqat jamiyat, balki oila ham beradi. Biz ana shu uzviylikni unutib qo'ydik.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ezgu maqsadda qabul qilingan qonun va qarorlar, joriy etilgan tartib-tamoyillar tizgini keyinchalik o'z holiga tashlab qo'yildi. Ular ijrosi, nazoratiga qiziqish susaydi. Natijada o'sha paytdagi izdan chiqqan qonunchilik, rasmiy va norasmiy tizim yosh avlodning ma'nan sinishiga, kelajakka qo'l siltashiga sabab bo'ldi. Katta hayotga ishtiyiq, zavqu shavq bilan qadam qo'ygan aksariyat yigit-qizlarni adolatsiz zarbasi bilan gangitib qo'ydi...

Uch farzandim bor. To'ng'ichimning abituriyentlik davri 2013-yilga to'g'ri keldi. Bir oz ijodkor, litseyda o'qigan yillari matbuotda lavha, maqolalari

chiqqan. Badiiy adabiyotni ko'p o'qiydi. Dizaynerlik, bezak berish ishlariga ham uquvli. O'zaro maslahatlashgach, u o'qish uchun O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga hujjat topshiradigan bo'ldi. O'sha kezlari kirish imtihonlari bir kunda — 1-avgustda bo'lib o'tardi. Xorijiy OTMLar va filialining qabul imtihoni sal avval o'tkazilardi. Xullas, farzandimning hujjatlarining aslini O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakultetiga, nusxasini Toshkentdagi Turin politexnika universitetiga topshirdi. Shaharozlik va dizayn yo'nalishi bizga ma'kul keldi.

Iyul oyi o'rtalarida Toshkentdagi Turin politexnika universitetiga kirish sinovlari bo'lib o'tdi. Bu ta'lim muassasasida imtihonlar ham, o'qish ham faqat ingliz tilida bo'ladi. Qizim o'quvchilik davrida chet tili o'qituvchisidan 3-4 oy qo'shimcha dars olgan edi. Shu bilimiga ishonib, imtihonga bordi. Uyga ko'zi porlab qaytdi. Hamma jarayon qat'iy nazorat ostida o'tgani, savollar qanchalik murakkab bo'lmasin, javob berishga harakat qilganini mamnun kayfiyatda aytib berdi.

Chamasi
15 kundan keyin test
javobi chiqdi: qizim 181 ball
bilan to'lov-kontrakt asosida
o'qishga qabul qilindi. Xabardan biz
quvondik, olamga sig'madik. Ammo
qizimning bundan zarracha suyunganini
sezmadik. "Jahon tillarida o'qimayman",
dedi. Ha, bildikki, bu qaror
ma'naviy zarba ortidan 1-avgust
kuni qabul qilib
bo'lingan edi.

So'ng 1-avgust keldi. Qizim o'ta tushkun, charchagan holda uyga qaytdi.

— To'lov-kontraktga kirsam, o'qimayman, davlat grantiga ilinsam, o'ylab ko'raman. Test jarayoni bunaqa betartib, adolatsiz bo'lishini bilmagandim. Kingadir tayyor javoblarni, yana boshqasiga foydalanish uchun telefon olib kirib berishyapti. Bunaqada kirish bali sun'iy oshib ketadi-ku, deb e'tiroz qilsam, nazoratchilar 50 dollar bersang, senga ham yordam beramiz, deb qo'rqmay ayyapti. Bilmadim nima bo'ladi, g'ala-g'ovur, shovqinda javoblarni belgilab chiqqunimcha boshim qattiq og'rib qoldi.

Tartibga ko'ra, kirish imtihonlaridan avval xalqaro jurnalistika fakulteti talabaligiga nomzodlarning ijodiy salohiyati sinab ko'rilgan edi. Farzandim "ijodiy imtihon" deb atalgan bosqichda barcha savolga to'liq javob bersa-da, 51 ball qo'yilgan, oddiy savollarga jo'yali javob berolmaganlar esa tanish-bilishchilik orqasidan 65-66 ball olgani haqida gapirganida uncha e'tibor bermagandim.

Chamasi 15 kundan keyin test javobi chiqdi: qizim 181 ball bilan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilindi. Xabardan



biz quvondik, olamga sig'madik. Ammo qizimning bundan zarracha suyunganini sezmadik. "Jahon tillarida o'qimayman", dedi. Ha, bildikki, bu qaror ma'naviy zarba ortidan 1-avgust kuni qabul qilib bo'lingan edi. Bir hafta avval Toshkentdagi Turin politexnika universitetida imtihon natijasi chiqqan, qizim sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan edi. O'qish uchun shu OTM tanlandi.

2014-yilda o'rtancham kollejini bitirdi. Uni ko'proq aniq fanlar qiziqtirardi. Oxirgi uch yilda o'quv markaziga qatnab, kerakli fanlar bilan alohida shug'ullandi. Bu samara berib, abituriyentlar uchun imtihonoldi pulli test sinovlarida yaxshi natijaga erishdi, o'ziga ishonchi ortdi.

Moliya yo'nalishiga hujjat topshirib, kirish imtihonida 199 ball to'pladi. Davlat granti asosida, albatta, o'qishga kiraman, deb ishongan va shunga erishish uchun yillar davomida harakat qilgan o'g'lim to'lov-kontrakt asosida talaba bo'ldi. Salkam 200 ball bilan ham davlat granti asosida o'qish imkoni berilmadi. Yana o'sha manzara yuz bergan edi: nazoratchilardan tayyor javoblar, telefonlar, "parovoz", "konveyer" kabi test imtihoni uchun o'ylab topilgan o'yinlar avjiga chiqdi. Vaholanki, talab eng katta yuridik institutida 2014-yili eng yuqori natija 167 ballni tashkil qilgan ekan. O'shanda ham ruhi cho'kkan farzandimni o'qishga qo'l siltashdan arang to'xtatib qolgan edik.

O'tgan yili navbat kenja farzandimga keldi. O'quv markazi, repetitor, qo'shimcha dars nimaligini bilmadik. Chunki maktabdan keyin o'qigan litseydagi darslar IELTS sertifikatiga olishiga ham, bir paytmning o'zida mamlakatimizdagi eng nufuzli xorijiy 3-4 oliy ta'lim muassasasi talabasi bo'lishiga ham kifoya qildi. Hozir 2-kursga o'tdi. Ko'zidagi o't, yuragidagi shijoat o'sha o'sha — so'nimgan. Ertangi kuniga ishonchi mustahkam, ko'zlagan marrasi, maqsadi bor. Orzulari katta.

Ma'kul gap

Ma'naviy yetuklik, ma'rifiy yuksalish yo'lidagi islohotlar samaradorligiga to'siq bo'layotgan holatlar hamon borligi yuqori

minbarlarda aytiladi, aytilyapti. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lamini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbidagi islohotlarga daxldorlik hissinu kuchaytirish lozimligi ta'kidlanmoqda. Buning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari



ham qator me'yoriy hujjatlar bilan belgilab berilgan.

Bugun ijtimoiy tarmoqlar yaxshi va yomon, umuman, barcha yangilik muhokama qilnadigan maydonga aylangan. Bu sarhadda turfa fikrlar, qarashlar mavjud. Ular shunchalar ko'p va davomiyki, hammasini esda saqlab qolish, xotiraga muhrlash oson ish emas.

Gap shundaki, 1-2 yil avval qaysidir tumandagi (aniq nomi va manzili yodda qolmagan) maktabning yuqori sinf o'quvchisi respublika darajasida o'tkazilgan fan musobaqasida yuqori natijaga erishadi. G'oliblikni qo'lga kiritib, muallimlari yuzini yorug' qiladi. Bu muvaffaqiyati evaziga tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlanadi.

Ta'lim muassasasiga qaytib kelgan o'quvchini tuman mutasaddilari ham rag'batlantirmoqchi bo'ladi. Maktabda tantanali yig'ilish tashkil etilib, barcha

o'quvchi va o'qituvchilar jamoasi huzurida g'olibga tuman hokimi nomidan sovg'alar beriladi. Barcha, ayniqsa, iqtidorli o'quvchi xursand, qarsaklardan sarxush... Afsuski, shodlik uzoqqa cho'zilmaydi. Muzaffar o'quvchi chiroyli qadoqlangan sovg'ani ochganida xonani atrofidagi tengdoshlarining kulgisi to'ldiradi. Chiroyli qadoq ichidagi sovg'a pilot (elektr tokini yetkazib beruvchi sim) bo'lib chiqadi. Yana bir shunga o'xshash holatda (faqat boshqa tumanda) nufuzli tanlov g'olibiga sovg'a sifatida eski va uzoq foydalanilgan noutbuk beriladi.

Bunday holatlar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari e'tiroziga sabab bo'ldi. Tashkilotchi va sovg'a ulashuvchilar tanqid ostiga olindi. O'shanda foydalanuvchilardan biri fikr bildirib: "Bugun ma'naviyatdan iqtisod qilingan 1 so'm ertaga milliardlab so'm zarar keltiradi", deb izoh yozgani hamon yodimda.

Tanish jumalalar-a? Ha, bu o'sha yuqorida eslaganimiz — davlatimiz rahbarining da'vat va chaqiriqlaridan kelib chiqadigan ma'no. Bu jamiyatda ma'naviy muhit shakllanyapti, ma'naviy qarashlar o'zgarayapti, deganidir. "Olam yomonlik qiladiganlar emas, balki hech bir ish qilmay, tomosha qiladiganlar sababli halokatga yuz tutadi", degan edi Albert Eynshteyn. Demak, biz bugun "qani, buyog'i qanday bo'lar ekan", deguvchi tomoshabin emas, bevosita jamiyat hayotining bir bo'lagi, davlatimiz yuritayotgan siyosat targ'ibotchisi, faol ishtirokchisi bo'lmog'imiz shart.

Shu yerda so'zimni yakunlamoqchi edim. O'ylab ko'rib, bugun ertalab taksi haydovchisi bilan qilgan subhatim haqida aytishim kerak, degan qarorga keldim. O'zi taksi xizmatidan ko'p foydalanmayman. Bugun tongda shaxsiy